



Received: August 6, 2025

Accepted: September 21, 2025

Available online: September 25, 2025

Normurod Avazov

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Alfraganus universiteti
Toshkent, O'zbekiston

“PADARKUSH” DRAMASI: DASTLABKI NASHR VA TABDILLAR TAHLILI

ANNOTATSIYA

Maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning 1911-yilda yozilib, 1913-yili nashr etilgan “Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi” asarining asl nusxasi o'rganilib, uni mustaqillik yillarida nashr etilgan nusxalari bilan solishtirilgan va tahlilga tortilgan. Adabiyotshunosligimizda Behbudiy yangi o'zbek adabiyotining tamal toshini qo'ygan ijodkor sifatida baholanadi. Uning “Padarkush” dramasi birinchi o'zbek fojiasi (tragediyasi) sifatida e'tirof etilgan. Ushbu dramada Turkiston zaminida xonliklar davridagi xunrezliklar, otaga nisbatan nafratning og'ir oqibatlari, farzandning o'z otasi qotili bo'lishigacha borgani jonli tasvirlangan.

Tadqiqotda asl nusxa bilan bir qatorda 1989-yili “Sharq yulduzi” jurnalida Sherali Turdiyev tomonidan nashr qilingan nusxasi; 2006-yili va 2020-yili professor Begali Qosimov tahriri ostida chop etilgan nusxasi; 2018-yili zahmatkash olim Sirojiddin Ahmedov tomonidan tabdil qilingan nusxalari o'rganilgan va tahlil qilingan.

“Padarkush” dramasi nashri va uning mustaqillik davrida chop etilgan nusxalari hamda tabdillarini tahlil qilish orqali tadqiqotchi ilmiy jarayonga hali aytilmagan ma'lumotlarni yetkazishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Shuningdek, muallif matnshunoslikda matnlarni o'qish, so'zlarni to'g'ri qo'llash, boshqa tillardan kirgan so'zlarga alohida e'tibor qaratish, ba'zi qadimiy so'zlarning mazmun va ma'nolarini lug'atlardan topib qo'llagan. Natijada asl manba nashri orqali mustaqillik davrida yaratilgan nashrlarning tabdillari asoslab berilgan. Buning uchun tavsiflash hamda qiyoslash metodlaridan

Normurod Avazov

Doctor of Sciences in Philology (DSc), Professor
Alfraganus University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: normurod.avazov.63@mail.ru
ORCID iD: 0009-0004-6246-5118

THE DRAMA *PATRICIDE*: ANALYSIS OF THE FIRST EDITION AND ITS ADAPTATIONS

ABSTRACT

The article examines the original version of Mahmudkhoja Behbudiy's play *Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi* (“Patricide, or the Fate of an Uneducated Son”), written in 1911 and published in 1913, comparing it with the editions released during the years of Uzbekistan's independence. In Uzbek literary studies, Behbudiy is regarded as one of the founders of modern Uzbek literature, and his drama *Padarkush* is recognized as the first Uzbek tragedy. The play vividly depicts the brutality of the khanate period in Turkistan, the tragic consequences of hatred toward one's father, and the horrifying act of a son becoming his father's murderer.

The research analyzes not only the original text but also several later editions: the 1989 version published by Sherali Turdiyev in the journal *Sharq yulduzi* (“Eastern Star”); the 2006 and 2020 editions edited by Professor Begali Qosimov; and the 2018 adaptation prepared by the diligent scholar Sirojiddin Ahmedov. By comparing the first publication with the post-independence editions and adaptations, the researcher aims to introduce new and previously unaddressed insights into the scholarly discourse.

Furthermore, the author pays particular attention to issues of textual scholarship such as accurate reading of texts, appropriate use of words, special consideration of borrowed vocabulary, and the identification and interpretation of archaic words through dictionaries. As a result, the study substantiates the linguistic and stylistic transformations found in the modern editions by drawing upon the original source. The research

foydalanilgan.

Kalit soʻzlar: asl nusxa, meros, drama, mazmun, maqsad, tabdil, teatr, tahlil, manba, milliy nashr.

employs descriptive and comparative methods to achieve these objectives.

Key words: original version, heritage, play, content, purpose, adaptation, theatre, analysis, source, national edition.

KIRISH

Tarix – haqiqat chirogʻidir. Behbudiyning oʻzi aytganidek: “Taraqqiy qilgan millatlar tiyotrxonalarni ulugʻlar uchun – maktabi adab va ibrat ataydurlar. Taraqqiy qilmoqni eng birinchi sabab va boislaridan biri tiyotrlardur. Tiyotrlarni va yomon odatlarni sarrof va munaqqidi, derlar. Umuman, odatlarni nafʼ va zararidan paydo boʻladurgon natijalarni tiyotrxonada aynan koʻrsatadurki, ham har kim mundan taʼsirlanib, yomon odatlarni tark etib, yaxshilikni ziyoda ishlamoqgʻa sabab boʻlur” [Behbudi, 1914]. 1916-yildagi Turkiston general-gubernatori N.R. Kuropatkin: “Biz 50 yil tubjoy aholini taraqqiyotdan jilovladik, maktablar va rus hayotidan chetda tutdik” [Majid, 1992; 39]. Shuningdek, “soliqlarni oshirib borish siyosati vositasi bilan chor hukumati Turkistonning qonini soʻrib yotardi...” [Majid, 1992; 37]. Qolaversa, chor hukumati mustamlakada boʻlgan Turkistonni oʻz huquqlarini bilishlaridan hech qachon manfaatdor emas edi.

Ko'ringanidek, millat va Vatanning kelajagi xavf ostida edi. Unda shunday harakatlar va ishlar qilinishi lozim ediki, bu qabohatlarni hamma ko'ra olishlari kerak bo'lgan. Mana shunday ehtiyoj va zarurat, qolaversa, jaholat va mutaassiblik natijasida bu dramatik asarni yozish – Mahmudxo'ja Behbudiyning zimmasiga tushdi.

ASOSIY QISM

XX asr boshida Turkiston o'lkasida milliy uyg'onishning dastlabki manbasi sifatida "Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi" [Behbudiy, 1913] dramasi dunyo yuzini ko'rdi (1-rasmga qarang):

1-rasm. “Padarkush yoxud o‘qimagan bolaning holi”
dramasining dastlabki nashri



Ushbu manba tarixiy zarurat va ma'naviy ehtiyoj taqozasi natijasida yoziladi. U jadidlar adabiyotining shakllanishida dasturilamal vazifasini bajardi. Alalxusus, asarning muallif tomonidan yozilishi, uning o'quvchiga yetib borishi ham muhim hisoblanadi. Yuqorida ko'rayotganimiz Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan 1911-yili yozilib, 1913-yildagina bosilib chiqqan asarning ilk nashri. Behbudiy mazkur nashr Borodino jangi va Rossiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo'lishining yubileyiga bag'ishlanganini qayd etadi: "Посвящается юбилейной нынъ памяти Бородинскаго памяти Бородинскаго сражені избавленія Россіи отъ нашествія Французовъ". Bu, birinchidan, asarning mashaqqat bilan nashr etilganligini, ya'ni chor hukumatining Tiflis senzurasining ruxsati bilan chop etilishga erishganligi hamda Behbudiyning daqiq harakati bilan amalga oshganligini ko'rsatadi. Asarning biz foydalanayotgan nusxasining tepasiga to'qqizinchi nashr ekanligi yozib qo'yilgan. Birinchidan to'qqizinchigacha bo'lgan nashrlari ham shu nusxa asosida chop etilgan. Shuningdek, asar nusxasining dastlabki sahifasida yana bir e'tiborni tortadigan jihati – muallifning asar va mualliflik huquqining himoyasi to'g'risida yozadi: "Для постановки настоящей пьесы требуется каждый разъ письменное разръшеніе автора" (Dramaning sahnada qo'yilishi uchun har safar muallifdan yozma ruxsati talab etiladi – A.N).

Behbudiyshunos olimlarimiz Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarini mustaqillik arafasida va mustaqillikdan keyingi yillarda nashr etib, tabdilni amalga oshirishdi. Ular o'quvchilarga "Padarkush" asarini 1989-yildan shu kunga qadar yetkazishga harakat qilib kelishdi. Shu kunga qadar "Padarkush" dramasining turli davrlarda nashr etilgan nusxalari paydo bo'ldi. Ushbu nashrlar va nusxalar, ya'ni matnlar tabdili to'g'risida ba'zi mulohazalarni quyida bildirishni lozim topdik.

"Padarkush" dramasi dastlab 1989-yili "Sharq yulduzi" jurnalining 7-sonida filologiya fanlari nomzodi Sherali Turdiyev tomonidan nashrga tayyorlandi [Behbudiy, 1989]. Shundan so'ng, mustaqillik yillarida "Padarkush"ning olimlarimiz tomonidan talaygina nashrlari e'lon qilindi. Yana 2006-yildagi nashrlarning asl nusxa bilan solishtirilganda, matnni o'qishda, ko'chirib yozishda ba'zan har xilliklarga duch kelasiz. Maqsad – asl nusxa bilan keyingi nashrlarni solishtirish natijasida yuzaga kelingan tafovutlarga oydinlik kiritishdan iborat.

"Padarkush"ning mundarijasida berilgan obrazlar va sahna uchun lozim bo'lgan muhim asbob va anjomlarning yozilishida ham ba'zan har xilliklarga duch kelamiz. Ya'ni "Sharq yulduzi" jurnalining 1989-yilgi nashri (Sh.Turdiyev)da [Behbudiy, 1989] "Qatnashuvchilar", 2006-yil professor Begali Qosimov tomonidan nashrga tayyorlangan Mahmudxo'ja Behbudiyning "Tanlangan asarlar"i [Behbudiy, 2006] nashrida "Qatnashuvchilar", 2020-yil B.Qosimov tomonidan "Tanlangan asarlar"ning qayta nashrida ham "Qatnashuvchilar" oldingi nashridagidek berilgan [Behbudiy, 2020]. Shuningdek, Mahmudxo'ja Behbudiyning ikki jildlik "Tanlangan asarlar"i olim Sirojiddin Ahmedov tayyorlagan nashrida "Ashxos – kerakli odamlar" [Behbudiy, 2018] tarzida yozilgan.

Mahmudxo'ja Behbudiyning o'zi tomonidan nashr qilingan "Padarkush"ning asl nusxasida "Ashxos – kerak odamlar" deb nomlangan. Shu o'rinda aytish kerakki,

Mahmudxo‘ja Behbudiylarning asl nusxasida “Ashxos – kerakli odamlar” dramaning oxirida, ya‘ni 17-18-betlarida keltirilgan [Behbudiyl, 1913]. Qolgan barcha nashrlarda qatnashuvchilar va kerakli narsalar asar sarlavhasidan keyin berilgan.

Manbalarda Toshmurodning yoshi ham har xil berilganligini ko‘ramiz. Ya‘ni, 1989-yilgi “Sharq yulduzi” (7-son)da “15 va 17 yashar” [Behbudiyl, 1989], 2006- va 2020-yildagi Begali Qosimov nashrida “15-17 yashar” [Behbudiyl, 2006, 2020], 2018-yil Sirojiddin Ahmedov nashrida “15 yo 17 yashar” [Behbudiyl, 2018], Mahmudxo‘ja Behbudiylarning 1913-yilgi asl nusxasida “15 yo 17 yashar” [Behbudiyl, 1913] tarzida keladi.

Dramadagi personajlardan 1989-yilgi Sherali Turdiyev nashrida “Domullo” – “mulla” [Behbudiyl, 1989], 2006-yilgi Begali Qosimov nashrida “Domulla” – “mulla”, 2020-yilgi qayta nashrida “domulla” [Behbudiyl, 2006, 2020], 2018-yilgi Sirojiddin Ahmedov nashrida “Domullo” – “mullo” [Behbudiyl, 2018], muallifning nashrida “Domla” – “mula” [Behbudiyl, 1913] sifatida yozilgan.

Shuningdek, Xayrulla obrazida keladigan “Xayrilla” ismi tarzida asl nusxada beriladi. Qolgan barcha nusxalarda “Xayrullo” sifatida tabdil etilgan. Shuningdek, “mirzayu mahrami” iborasi “Sharq yulduzi”ning 1989-yildagi 7-sonida [Behbudiyl, 1989], 2006- va 2020-yildagi Begali Qosimov nashrida “mirza va mahrami” [Behbudiyl, 2006, 2020], Sirojiddin Ahmedovning nashrida “mirza va mahrami” [Behbudiyl, 2018], Mahmudxo‘ja Behbudiyl nashrida “mirzo va mahrami” [Behbudiyl, 1913] tarzida yozilgan.

Liza personaji ham dramada kiritilgan bo‘lib, 1989-yil “Sharq yulduzi”da “rus xotuni, qabiha shaklida” [Behbudiyl, 1989], 2006- va 2020-yillardagi Begali Qosimovning “Tanlangan asarlari” nashrida “rus xotini, qabiha shaklida” [Behbudiyl, 2006, 2020], Sirojiddin Ahmedov nashrida “rus xotini” [Behbudiyl, 2018], Mahmudxo‘ja Behbudiylarning nashrida “rus xotuni qabiha shaklida” berilgan [Behbudiyl, 1913].

Obrazlar keltirilganda pristuf personaji 1989-yil “Sharq yulduzi”da “poliseyskiy” [Behbudiyl, 1989], 2006- va 2020-yillardagi professor Begali Qosimov nashrlarida “poliseyskiy” [Behbudiyl, 2006, 2020], Sirojiddin Ahmedovda “poliseyskiy”, Mahmudxo‘ja Behbudiyl “poliseyskiy” [Behbudiyl, 2018] tarzida qo‘llanilgan.

Obrazilarda boyning xotini “Boybuchcha” “Shaq yulduzi” [Behbudiyl, 1989], 2006- va 2020-yilgi professor Begali Qosimov nashrida “Boybuchcha” [Behbudiyl, 2006, 2020], 2018-yilgi Sirojiddin Ahmedov nashrida “Boyvuchcha” [Behbudiyl, 2018], Mahmudxo‘ja Behbudiyl “Boybuchcha” tarzida [Behbudiyl, 1913] yozilganligini ko‘ramiz.

Pyesada personajlar uchun kerakli narsalardan foydalanishda ayrim shevaga xos so‘zlar ham ishlatilgan. Bunda asosan Samarqand hududiga xos bo‘lgan so‘zlar ko‘p qo‘llanilgan. Uning yozilishi 1989-yil “Sharq yulduzi”da “lali” [Behbudiyl, 1989], 2006- va 2020-yillardagi nashrlarda “la‘li” [Behbudiyl, 2006, 2020], 2018-yilgi nashrda esa “la‘li” [Behbudiyl, 2018], Mahmudxo‘ja Behbudiyl “la‘li” [Behbudiyl, 1913] tarzida ishlatilgan.

Asarda qo‘llaniladigan “Mehmonxonaga” so‘zi “Sharq yulduzi”da [Behbudiyl,

1989], 2006- va 2020-yilgi nashrlarda “Mehmonxonaga” [Behbudiy, 2006, 2020], 2018-yilgi “Tanlangan asarlar”da “Mayxonaga” [Behbudiy, 2018], Mahmudxo'ja Behbudiyda “Mehmonxonaga” soʻzi [Behbudiy, 1913] qoʻllanilgan. Tabdilning 2018-yilgi nashrida “Mayxonaga” soʻzini qoʻllab, qoʻpol xatoga yoʻl qoʻyilgan.

Shuningdek, kerakli narsalarda “Bir oʻn shisha suv va kvas”, 2006- va 2020-yillar nashrida “Oʻn shisha suv va kvas” [Behbudiy, 2006, 2020], 2018-yilgi Sirojiddin Ahmedov nashrida “Bir oʻn shisha suv va kvas” [Behbudiy, 2018] keltiriladi. Mahmudxo'ja Behbudiyda “Bir oʻn shisha kvas” yoziladi [Behbudiy, 1913].

Shu jumladan, dramaning kerakli narsalarida “Sharq yulduzi”da “Stakan” [Behbudiy, 1989], Begali Qosimovning nashrlarida “Istakon” [Behbudiy, 2006, 2020], 2018-yilgi Sirojiddin Ahmedovning nashrida “Stakan” [Behbudiy, 2018], Mahmudxo'ja Behbudiyda esa “Istakon” birlamchi manba sifatida [Behbudiy, 1913] qoʻllangan.

Pyesadagi qatnashuvchilarda “toʻpponcha” soʻzi “Sharq yulduzi”da [Behbudiy, 1989], Begali Qosimovning 2006- va 2020-yillari nashrlarida “tapponcha” [Behbudiy, 2006, 2020], Sirojiddin Ahmedovda “toʻpponcha” [Behbudiy, 2018], Mahmudxo'ja Behbudiyda esa “toʻponcha” [Behbudiy, 1913] tarzida beriladi.

Bulardan tashqari, asarda “sanduq” soʻzi “Sharq yulduzi”da [Behbudiy, 1989], 2006- va 2020-yillardagi nashrida (B.Qosimov) “sanduq” [Behbudiy, 2006, 2020], 2018-yil Sirojiddin Ahmedovning nashrida “sandi” va “sanduq” [Behbudiy, 2018] tarzida ikki xil qoʻllaniladi, Mahmudxo'ja Behbudiyda esa “sanduq” [Behbudiy, 1913] qoʻllanilgan.

Sahnaga kerakli narsalarda 1989-yil “Sharq yulduzi”da “shohsaqa” [Behbudiy, 1989], 2006-, 2020-yillardagi nashrlarda shohsaqa [Behbudiy, 2006, 2020], 2018-yilgi nashrda ushbu soʻz [Behbudiy, 2018] tushirib qoldirilgan. Muallif “Padarkush”da “shaqshaqa” atamasini [Behbudiy, 1913] qoʻllagan. Yaʼni, milliy qoʻshiqchilarimizning qoʻllarida shaq-shaq qoʻllanadigan predmet, yaʼni shaqildoq nazarda tutilmoqda.

Qolaversa, shunday soʻzlarning qoʻllanishida shevalarning taʼsiri natijasida yozilishida tabdil paytida harflarning oʻzgarishi va har xilliklariga ham duch kelamiz. Masalan, 1989-yil “Sharq yulduzi”da “kanob” [Behbudiy, 1989], 2006-, 2020-yillarning nashrida “kanob” [Behbudiy, 2006, 2020], Sirojiddin Ahmedovda “kanop” [Behbudiy, 2018], Mahmudxo'ja Behbudiyda “kanob” [Behbudiy, 1913] yozilgan.

Dramaning birinchi pardasi boyning “mehmonxonada” oʻtirishi bilan boshlanadi. “Mehmonxona” atamasini eslashimizdan maqsad shuki, yuqorida keltirilgan obrazlar mundarijasida “mehmonxonaga” va “mayxonaga” birikma soʻzlarining qoʻllanganligiga toʻxtalganmiz. Boyning oʻtiradigan joyida gilam, koʻrpa, yostiqlar mehmonxonada turadimi yoki mayxonadami? Yuqorida 2018-yil nashridagi (S.Ahmedov) “mayxonaga” soʻz birikmasining asl manbadan notoʻgʻri qoʻllanganligini aytdik.

Dramaning birinchi pardasidagi matnlarda oʻqishda soʻzlar, ular oʻrtasidagi bogʻlovchi soʻzlarning qoʻllanishida, mamlakatlar va joy nomlarining oʻqilishida turfa xilliklar hamda xato oʻqilish natijasida notoʻgʻri yozilishga sabab boʻlgan

jarayonlarni ko'ramiz. Shuningdek, matnlarning ba'zi joylarida so'zlar va gaplarning tushib qoldirilganligining ham guvohi bo'lamiz. Birinchi pardada domulla tomonidan: "Ajoyib, sabab nedurki, o'qitmaysiz? Vaholanki, o'qumoq farz va ilm sababi izzati dunyo va sharofati oxiratdur" so'zlari qo'llaniladi. Biz keltirgan matn birinchi manba asosida yozildi. 2006- va 2020-yillar nashrida (B.Qosimov) "farz" so'zini "qarz" deb qo'llagan [Behbudiy, 2006, 2020]. Sirojiddin Ahmedov nashrida birinchi manbadagidek to'g'ri yozilgan. Shuningdek, birinchi pardada boyning nutqi: "Shariat ilmini o'qitmoqni lozim bilmayman, chunki ani mufti yo imom va muazzin qilmoqchi emasman, azbaski, davlatim anga yetar". Boyning ushbu nutqi ham birinchi manbada shunday keltirilgan. 2006- va 2020-yillardagi nashrlarda bu matn to'g'ri qo'llanilgan [Behbudiy, 2006, 2020]. Lekin 2018-yilgi (S.Ahmedov) nashrida "anga" so'zi qoldirib ketilgan.

Ushbu pardada boyning nutqida qo'llanilgan "hamyoza tortmoq" atamasi birinchi manbada shunday qo'llanilgan, 2006- va 2020-yillardagi nashrlarda (B.Qosimov) "homuza tortar" [Behbudiy, 2006, 2020] deb ishlatilgan, 2018-yilgi (S.Ahmedov) nashrida esa "hikoyalari hamyaza tortar" [Behbudiy, 2018] deb to'g'ri qo'llangan. Biroq "hamyoza tortmoq" so'zlarining yozilishi noto'g'ri bo'lib, ya'ni "ya" harfining o'rniga "yo" harfini qo'llash lozim. Matnlarda personaj nutqining birinchi manbadan noto'g'ri o'qilishi so'zlarni o'zgartirib yuborgan. Jumladan, boyning nutqida: "Koshki, domulla hikoyani aytmasa edi". Asl manba shunday qo'llanilgan. Lekin 2006- va 2020-yillar nashrida (B.Qosimov) "hikoyalari yetmasa" tarzida [Behbudiy, 2006, 2020] noto'g'ri ishlatilgan. Ushbu pardada yana bitta muhim atamaning qo'llanishiga e'tiborlaringizni qaratmoqchiman. Ya'ni, Behbudiy asarda ziyoli nutqida payg'ambarning (s.a.v.) hadislaridan unumli foydalanib: "Ilm Xitoyga bo'lsa, talab qilingiz, demadilarmi?" deydi. Ammo 2018-yilgi (S.Ahmedov) nashrida "Chin" deb mazmun to'g'ri bo'lsa ham, lekin birinchi manbaning yozuvini o'zgartirib qo'llaydi [Behbudiy, 2018]. Shuningdek, ushbu pardada domulla nutqidagi "Inshoolloh, mo'ylab chiqarib, alifni tayoq demaydurgan o'g'lungiz holini ko'rarmiz va ham o'qutmaganingiz uchun gunohkor bo'lursiz" matnidagi "ham" bog'lovchisi birinchi manbadan tashqari boshqa barcha nashrlarda qoldirib ketilgan. Shuningdek, ziyoli nutqidagi: "Janob boy, sizni kayfsiz ko'rarman, mumkinmi sababini bilsam?"da boshqa barcha nashrlarda "ko'raman" tarzida qo'llanilmoqda.

Asarning ikkinchi va uchinchi pardalarida ham boshqa tillardan kirib kelayotgan so'zlar o'sha millat vakilining nutqidan beriladi. Uning aksariyat qismlari to'g'ri qo'llanilib kelingan, lekin noto'g'ri qo'llangan jihatlari ham yo'q emas. Behbudiyda asosan o'sha millat vakilining tilidan berilishi matnning o'qishli bo'lishini, notiqning so'zlari ishonarli chiqishini ta'minlagan. Ya'ni, Artun nutqida: "Burda" qo'llanilgan. Bu so'zning qo'llanilishi 2018-yil (S.Ahmedov) nashrida aynan birinchi manba asosida keladi. Lekin, 2006- va 2020-yillar nashrida (B.Qosimov) asliyat matnini o'zlashtirib "bunda" iborasini [Behbudiy, 2006, 2020] qo'llaganligini ko'ramiz. Shu bilan bir qatorda, matnda qo'llanilayotgan iboralarning ko'p qismi xalqona so'zlardan tashkil topadi. Ular xalq orasida qo'llanilib kelayotgan ma'nolarni anglatadi. Asarda Artun nutqi berilgan: "Bah, ne vor, bilursin, Liza banga demishki, o'n besh manatsiz

banga kishi ko'ndarma. Ha, o'n besh manatda va faytun pulini-da ver, geyin Nikolayi ko'ndarayum. Liza o'lmasa, boshqasini getirsin, kayfingni chek?". Bu gapni boshqa nashrlarda noto'g'ri qo'llab, nutqning mazmuniga ta'sir qilganligini ko'ramiz. Masalan, 2006- va 2020-yillar nashrida (B.Qosimov) "kayfing nechuk" deb qo'llaydi [Behbudiy, 2006, 2020] va gapdagi iboraning ma'nosini o'zgartirib yuboradi. 2018-yil (S.Ahmedov) nashrida esa "kayfini chek" tarzida qo'llaydi [Behbudiy, 2018] va boshqa shaxsga nisbat berilib ketiladi.

Tabdillarda ba'zan ma'noni chuqurroq o'rganib, lug'atlar orqali so'zlarni aniqlab, ularni qo'llashga to'g'ri keladi. Jumladan, ikkinchi pardadagi Nor nutqida: "(Tamasxur ila). Ey, boyvachcha, bizlar-ku, kambag'al. Sizga nima, kissangizdan pul chiqmaydur? Ha boyvachchaning holi". Bu nutqda notushuncha bo'lgan so'z "Tamasxur" atamasidir. Behbudiy bu yerda masxaraomuz ohangda murojaat qilgan Norning nutqini keltiradi.

Dramaning oxiri ziyoli nutqi bilan tugaydi. Ziyoliyning nutqidan oldingi holatda: "Polisiya to'rt nafarni ushlar, ba'zisi mujrimlarni va har tarafni axtarar, qonlik pichoq va to'pponchani topar". Shu gapda "mujrim" iborasi notushuncha bo'lib kelgan. Uning lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratilsa, gunohkor, aybdor ma'nolarini bildiradi [Fozilov, 1983; 338].

XULOSA

Behbudiy o'lkada yangi islohotlarni joriy qilishni niyat qilgan edi. U yangi maktablarni yaratish g'oyasi va ilmsizlikning oldini olishga qaratilgan rejasi uchun kurashdi. Uning millat uchun milliy g'oyaning asoslarini ishlab chiqarishga qaratilgan dasturi o'lkada batamom yangi islohot hisoblanardi. Qolaversa, uning yozgan asarlari o'zidan keyingi avlodga turtki bo'ldi [Muin, 2010]. Behbudiy dramada bu muammoni sarlavha sifatida olib chiqishi unga xos bo'lgan uslub hisobladi. Muallifning drama uchun sarlavha tanlashi o'sha jamiyatning bosh muammosini o'zida aks ettiradi. Asardagi har bir obraz Behbudiy tomonidan yaratilgan topilma bo'lib, ular ilohiy tavsiflarga ega edi. Uning so'z qudratiga e'tibor qaratishi shunda ko'rinadiki, bitta sarlavhaning o'zida butun dramadagi mazmun mujassamlashgan.

Biz yuqorida "Padarkush"ning asl nusxasi bilan mustaqillik davrida chop qilingan nashrlarni qiyosiy o'rganish orqali manbalarning tabdillariga e'tibor qaratdik. Bu yil davlatimiz rahbari tomonidan "Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori [PQ-462-son, 2024] taraqqiyparvar ajdodlarimiz hayoti, ilmiy merosini o'rganishda yangi bosqichni boshlab berdi. Taraqqiyparvarning ijodi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Globallashuv davrida Behbudiyning ma'rifiy qarashlari, uning milliy g'oya bo'yicha tamoyillarini o'rganish, tadqiqot va tahlil hamda tabdillardan kelib chiqqan holda asarlarni nashr qilish, qayta nashr qilish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-462-sonli qarori. (2024-yil 27-dekabr). Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog

- Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida. *Lex.uz* da. <https://lex.uz/uz/docs/-7287373>.
2. Behbudiy, M. (1913). *Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi*. Samarqand: Nashriyoti Behbudiy.
 3. Behbudiy, M. (1914-yil 10-may). Tiyoatr nadur. "*Oyina*" *jurnali*, 29.
 4. Behbudiy, M. (1989). *Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi* (Sh.Turdiyev (Nashr. tayyorl.)). "*Sharq yulduzi*" *jurnali*, 7.
 5. Behbudiy, M. (2006). *Tanlangan asarlar* (B.Qosimov (Tuzuv.), 3-n.). Toshkent: Ma'naviyat.
 6. Behbudiy, M. (2018). *Tanlangan asarlar* (S.Ahmedov (Tuzuv.), 2 jildli). Toshkent: Akademnashr.
 7. Behbudiy, M. (2020). *Tanlangan asarlar* (B.Qosimov (Tuzuv.)). Toshkent: Ma'naviyat.
 8. Fozilov, E.I. (Tahr.). (1983). *Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati* (4 tomlik, 2-t.). Toshkent: Fan.
 9. Majid, H. (1992). *Turkiston bosqini*. Toshkent: Nur.
 10. Muin, H.Sh. (2010). *Eski maktab, yangi maktab*. Toshkent: Ma'naviyat.

REFERENCES

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-462. (2024, December 27). On the wide celebration of the 150th anniversary of the birth of Mahmudkhoja Behbudi, founder of the Turkistan Jadid movement, prominent writer, public figure, publisher, and educator. In *Lex.uz*. <https://lex.uz/uz/docs/-7287373>.
2. Behbudi, M. (1913). *Patricide, or the fate of an uneducated son*. Samarkand: Behbudi Publishing House.
3. Behbudi, M. (1914, May 10). What is theatre?. *Journal of 'Oyina'*, 29.
4. Behbudi, M. (1989). *Patricide, or the fate of an uneducated son* (Sh.Turdiyev (Ed. prep.)). *Journal of 'Star of the East'*, 7.
5. Behbudi, M. (2006). *Selected works* (B.Qosimov (Comp.), 3rd ed.). Tashkent: Spirituality.
6. Behbudi, M. (2018). *Selected works* (S.Ahmedov (Comp.), 2 vols.). Tashkent: Akademnashr.
7. Behbudi, M. (2020). *Selected works* (B.Qosimov (Comp.)). Tashkent: Spirituality.
8. Fozilov, E.I. (Ed.). (1983). *Explanatory dictionary of the language of Alisher Navoi's works* (4 vols., Vol. 2). Tashkent: Science.
9. Majid, H. (1992). *The invasion of Turkistan*. Tashkent: Light.
10. Muin, H.Sh. (2010). *Old school, new school*. Tashkent: Spirituality.